FILIP ROT ASARLARIDA MUALLIF SHAXSIYATINING BADIIY TALQINI (“ARVOH YOZUVCHI” ROMANI MISOLIDA)

Ganieva Orzigul Khayridinovna
Email: ganievaorzigul494@gmail.com
Associate professor, DSc, Bukhara State University
Zakiryaeva Malika Azizovna
Email: zakirayevamalika@gmail.com
MA student, Bukhara State University

Annotatsiya. *Ushbu maqola Philip Rotning “Arvoh yozuvchi” romanida avtobiografik unsurlar va muallifning o`z shaxsini badiiy asarga kiritish metodlarini o‘rganadi. Tadqiqot postmodernizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan muallif identifikatsiyasi muammosini, asarning avtobiografik va badiiy unsurlarining o`zaro ta’sirini tahlil qiladi. Asosiy e’tibor muallif va qahramon o`rtasidagi murakkab munosabatlarga, ijod jarayonining tasvirlanishiga va yahudiy-amerika yozuvchisining madaniy identifikatsiya masalalariga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Philip Rot, avtobiografik nasrchilik, muallif identifikatsiyasi, Nathan Zukerman, yahudiy-amerika adabiyoti, ijod jarayoni.*

Аннотация. *Данная статья исследует автобиографические элементы и методы включения авторской личности в художественное произведение в романе Филипа Рота “Писатель-призрак”. Исследование анализирует проблему авторской идентификации, являющуюся одной из важных характеристик постмодернистской литературы, взаимодействие автобиографических и художественных элементов произведения. Основное внимание сосредоточено на сложных отношениях между автором и героем, изображении творческого процесса и вопросах культурной идентификации еврейско-американского писателя.*

Ключевые слова: *Филип Рот, автобиографическая проза, авторская идентификация, Натан Цукерман, еврейско-американская литература, метахудожественность, творческий процесс.*

Abstract. *This article examines autobiographical elements and methods of incorporating the author's self into the literary work in Philip Roth's novel “The Ghost Writer”. The research analyzes the problem of authorial identification, which is one of the important characteristics of postmodernist literature, and the interaction of autobiographical and fictional elements in the work. The main focus is on the complex*

relationship between author and protagonist, the depiction of the creative process, and issues of cultural identification of the multicultural writer.

Keywords: *Philip Roth, autobiographical fiction, authorial identification,Nathan Zuckerman, multicultural literature, metafiction, creative process.*

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda muallif shaxsiyati va uning badiiy asardagi o‘rni muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Roland Barthes “Muallifning o‘limi” konsepsiyasini ilgari surgan bo‘lsa-da, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida avtobiografik nasrchilik va o`z-o`ziga ishora qiluvchi adabiyot yangi ko`rinishlarda qayta tug’ildi. Philip Rot (1933-2018) amerika adabiyotining eng yirik vakillaridan biri sifatida o‘z ijodida avtobiografik va badiiy unsurlarni maxsus tarzda uyg’unlashtirib, muallif identifikatsiyasi masalasiga o`ziga xos yondashuv yaratdi. “Arvoh yozuvchi” (The Ghost Writer, 1979) romani Rotning Nathan Zukerman haqidagi davomiy adabiy turkum asarlarining birinchisi bo`lib, yosh yozuvchining ijodiy shakllanishi va muallif identifikatsiyasining murakkab tabiati haqida chuqur falsafiy mulohazalar taqdim etadi [1;132]. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Rot asarning o`z yaratilish sirlarini ochib beruvchi usullar va avtobiografik elementlarni qo`llash orqali zamonaviy adabiyotda muallif va asar o‘rtasidagi chegaralarni qayta ko’rib chiqishga erishgan. Maqolaning maqsadi “Arvoh yozuvchi” romanida muallif identifikatsiyasining talqin etilish usullarini tahlil qilish, Rot va uning qahramon Zukerman o`rtasidagi o`xshashliklar va farqlarni aniqlash, shuningdek, romanining avtobiografik va metabadiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda adabiy-tarixiy, taqqoslovchi-tipologik va ramziy talqin tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy material sifatida Philip Rotning “Arvoh yozuvchi” romani ingliz tilidagi asl matni tanlab olindi. Tahlil jarayonida romanidagi avtobiografik unsurlar, muallif va qahramon o`rtasidagi munosabatlar, ijod jarayonining tasviri va asarning o`zi haqida hikoya qilish usullari ko‘rib chiqildi. Philip Rotning ijodi va xususan uning Nathan Zukerman qahramoni haqida keng adabiy, tanqidiy adabiyotlar mavjud. Amerika tanqidchisi Debra Shostak Rotning asarlarida o`z obrazini shalklantirish va avtobiografiya muammolarini chuqur o‘rgangan [2;264]. U Rotning avtobiografik yozuvining postmodern xususiyatlarini ta’kidlab, muallif va qahramon o`rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni tahlil qiladi. Ross Posnock esa Rotning asarlarini yahudiy-amerika madaniy kontekstida o‘rganib, assimilyatsiya va etnik identifikatsiya muammolarini ko‘rib chiqadi [3;312]. Rus adabiyotshunosi Tatyana Venediktova amerikanizm va individualizmning Rot asarlaridagi

ifodalanishini tahlil qilgan [4;280]. O‘zbek adabiyotshunoslari orasida Abdulla Aripov va Naim Karimov zamonaviy g‘arb adabiyotining nazariy masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borganlar [5;240].

Avtobiografiya va badiiylik o‘rtasidagi chegaralar muammosi zamonaviy adabiyotshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Philippe Lejeune o‘zining “avtobiografik shartnoma” (autobiographical pact) konsepsiyasida muallif, so`zlovchi va qahramon o‘rtasidagi identifikatsiya masalasini ko‘rib chiqadi [6;272]. Jerome Klinkowitz postmodern amerika nasrida o`z hikoyasini tahlil qiluvchi asarning rivojlanishini tahlil qilib, Rotning bu jarayondagi o‘rnini ta’kidlaydi [7;211]. “Arvoh yozuvchi” romanida ijod jarayonining o‘zi badiiy tasvir ob'ektiga aylanadi. Lonoff obrazi orqali Rot yolg‘izlikda, tinchlikda, qat’iy intizomda ishlovchi klassik yozuvchining tasvirini yaratadi.

Romandan birinchi keltiriladigan misolda Nathan Zukerman o‘z yozuvchi hayotining boshlanishi haqida so‘zlab beradi: "I of necessity chose perfection in the work rather than the life, and by the end of each long day of canvassing had ten to twenty dollars in commissions to my credit and an unblemished future still before me" [8;8]. Bu parchadan tushunib yetish mumkinki, Zukerman hayotdagi muvaffaqiyatdan ko‘ra ijodiy mukammallikni afzal ko‘rishini aytib o`tadi. “Perfection in the work rather than the life” iborasi yozuvchining shaxsiy hayotini ijodiga qurbon qilish kerakligini anglatadi.

Linda Hutcheon postmodern adabiyotdagi historiografik metabadiiylik konsepsiyasini ishlab chiqib, haqiqat va badiiylik o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakllarini ko‘rsatadi [9;268]. Rot ham shu an’anada ishlab, o‘z hayotidan olingan materiallarni badiiy qayta talqindan o‘tkazadi. “Arvoh yozuvchi”da Zukermanning Lonoffga yozgan maktubi tasvirlangan qismda biz yosh yozuvchining ijodiy izlanishlarini ko‘ramiz: "From Quahsay I had sent Lonoff the literary quarterlies that had published my stories–four so far–along with a letter telling him how much he had meant to me when I came upon his work 'some years ago‘ in college" [8;8]. Ikkinchi keltiriladigan ushbu misol yosh yozuvchining o‘z ustoziga murojaat qilishining nozikliklarini ko‘rsatadi. Zukerman o‘z xatini o‘n marta qayta yozadi, chunki har bir samimiy gap yolg’ondek tuyuladi: “But then nothing I had ever written put me in such a sweat as that letter. Everything undeniably true struck me as transparently false as soon as I wrote it down”. Bu parchada Rot ijodiy samimiylik va badiiy shakllantirishning ziddiyatli tabiati haqida chuqur fikr yuritadi. Yozuvchining o‘z his-tuyg‘ularini so‘zlarga aylantirish muammosi, hatto shaxsiy xatda ham badiiy shakllantirish zaruriyati – bularning barchasi muallif shaxsini anglash jarayonining murakkabligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Arvoh yozuvchi” romanida Philip Rot muallif shaxsiyatini anglash jarayonini bir necha qatlamli tuzilmada taqdim etadi. Birinchidan, Nathan Zukerman obrazi Rotning o‘ziga qisman muallif tajribasining badiiy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi – ikkalasi ham yahudiy-amerika yozuvchilari, ikkalasi ham o‘z jamoalarida bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan hikoyalar muallifi. Biroq Rot ataylab bu muallif timsolini to‘liq bo‘lishdan saqlaydi, Zukerman va o‘zi o‘rtasida aniq farqlar yaratadi. Bu postmodern avtobiografiya strategiyasining muhim namunasi bo‘lib, muallif o‘z hayotini badiiy materialga aylantiradi, lekin uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z tarixi deb e’lon qilmaydi.

Romandagi uchinchi muhim misol Lonoffning kundalik ish rejimlari haqidagi tavsifida aks etadi: “I turn it around. Then I look at it and I turn it around again. Then I have lunch. Then I come back in and write another sentence. Then I have tea and turn the new sentence around. Then I read the two sentences over and turn them both around. Then I lie down on my sofa and think. Then I get up and throw them out and start from the beginning” [8;18]. Ushbu parchada Rot yozuvchining mehnatining juda sekin, qiyinchilik bilan olib boriladigan jarayonini tasvirlaydi. Har bir jumla ustida uzoq vaqt ishlash, uni qayta-qayta ko‘rib chiqish, so‘ngra tashlab yuborish va qaytadan boshlash – bu haqiqiy ijodiy jarayonning juda aniq tasviridir. Lonoff obrazi orqali Rot yozuvchining mukammallikka intilishini, har bir so‘zni o‘lchab-to‘rtib tanlashini ko‘rsatadi. Bu Flaubert va Joyce kabi klassik modernist yozuvchilarning estetik qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, Lonoffning dam olish kunlarida ham ishdan ajralib ololmasligi, soat qo‘ymasdan sayrga chiqsada ham bilagiga qarab turishi yozuvchi kasb-koriga butunlay berilish motifini kuchaytiradi.

To‘rtinchi misol xuddi shu parcha davomida keladi: “I sit back down at my little Olivetti and start looking at sentences and turning them around. And I ask myself, Why is there no way but this for me to fill my hours?” [8;18]. Bu savol butun roman uchun kalit ahamiyatga ega. Lonoff o‘z hayotini faqat yozish orqali ma’noli his qila oladi, ammo shu bilan birga bu uning qandaydir qamoqxonasi ham. Rotning o‘zi ham shunga o‘xshash ziddiyatni boshdan kechirgan – ijod ozodlik va zaruriyat, baxt va azob bir vaqtning o‘zida. Yosh Zukerman uchun esa bunday hayot jannatdek tuyuladi: “The life he described sounded like paradise to me; that he could think to do nothing better with his hours”. Bu parchada yosh va tajribali yozuvchilarning ijod jarayoniga qarashlaridagi farq namoyon bo‘ladi. Zukerman hali o‘z yo‘lining boshida turgan yozuvchi sifatida Lonoffning intizomli hayotini ideal deb biladi, ammo Lonoffning o‘zi bu hayotdan charchaganlik belgilarini ko‘rsatadi. Bu roman ichidagi o`zini talqin qilish lahzasi orqali Rot yozuvchilik kasbini ikki jihatli tabiatga o’xshatadi.

E.I. Lonoff obrazi juda muhim ahamiyatga ega. U yolg'iz yashovchi, tinchlikni qadrlovchi, o‘z ijodiga butunlay bag‘ishlangan yozuvchining timsolidir. Uning hayot tarzi va ijodiy metodlari Rotning o‘zi uchun ham o‘rnak bo‘lgan amerikalik yozuvchi Bernard Malamud yoki Isaak Bashevis Zingerga o‘xshaydi [10;248]. Lonoffning har kungi hayot tarzi – har bir jumlani qayta-qayta ishlash, tushlik qilish, choy ichish va yana yozish – badiiy ijodning mexanik va ruhiy tomonlarini birlashtiradi. Bu tasvir orqali Rot yozuvchilikni sirli bir pardaga o`rash o‘rniga, uni qattiq mehnat, sabr-toqat va qayta-qayta ishlashni talab qiladigan kasbhunar faoliyat sifatida ko‘rsatadi.

Romanida yakshanba kunlarining tasviri alohida diqqatga sazovor. Lonoff dam olish kunlarini fojia sifatida his qiladi, chunki u o‘sha vaqtni ish uchun ishlatmaydi. Bu holat yozuvchining o‘z kasb-koriga psixologik bog‘liqligini ko‘rsatadi – u yozmasdan yashay olmaydi, lekin yozish jarayonining o‘zi ham uni charchatadi. Rotning o‘zi ham intervyularida shunga o‘xshash his-tuyg‘ular haqida gapirgan, yozish uning hayotining markaziy maqsadi va eng katta qiyinchiligi ekanligini ta'kidlagan.“Arvoh yozuvchi”da bu motiv nafaqat Lonoff orqali, balki Zukermanning o‘z ijodiy yo‘lini boshlash jarayonida ham namoyon bo‘ladi.

XULOSA

“Arvoh yozuvchi” romanidagi muallif shaxsini anglash jarayonining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Philip Rot avtobiografik va badiiy unsurlarni maxsus uyg‘unlashtirib, zamonaviy adabiyotda muallif va asar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi ko‘rinishini yaratgan. Rot Nathan Zukerman obrazi orqali o‘z ijodiy tajribasini badiiy transformatsiyadan o‘tkazadi, bunda haqiqat va badiiylik o‘rtasidagi chegaralar ataylab murakkablashtiriladi. Romanda to‘rtta tahlil qilingan misol ijod jarayonining murakkabligini, yozuvchining o‘z kasb-koriga butunlay berilishini va avtobiografik materiallarni badiiy asarga aylantirish mexanizmlarini ochib beradi. Tadqiqot Philip Rotning postmodern adabiyotda muallif identifikatsiyasi muammosiga o‘ziga xos yechim topganligini isbotladi. U klassik zamonaviy adabiyotning asosiy vakillarining ijodiy metodlarini postmodern metabadiiylik bilan birlashtiradi, natijada nafaqat o‘z shaxsiy tajribasini, balki yozuvchilik kasbining o‘zini ham badiiy tadqiqot ob'ektiga aylantiradi. “Arvoh yozuvchi” romanida Zukermanning yosh yozuvchi sifatida voyaga yetishi, Lonoffning ijodiy usullari va ularning o‘zaro ta'siri orqali Rot XX asr ikkinchi yarmidagi yahudiy-amerika yozuvchisining murakkab madaniy o'rnini, ijodiy ozodlik va jamoa mas'uliyati o‘rtasidagi ziddiyatni, va yozuvchilik kasb-korining fojiali-ulug‘ tabiatini chuqur ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Рот Ф. Американская трилогия. – М.: Эксмо, 2012. – 132 с.
2. Shostak D. Philip Roth – Countertexts, Counterlives. – Columbia: University of South Carolina Press, 2004. – 264 p.
3. Posnock R. Philip Roth's Rude Truth: The Art of Immaturity. – Princeton: Princeton University Press, 2006. – 312 p.
4. Венедиктова Т.Д. Литература как опыт: "Буржуазный читатель" как культурный герой. – М.: Новое литературное обозрение, 2018. – 280 с.
5. Каримов Н. Ғарб адабиётининг назарий масалалари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015. – 240 б.
6. Lejeune P. On Autobiography / Trans. K. Leary. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1989. – 272 p.
7. Klinkowitz J. Literary Disruptions: The Making of a Post-Contemporary American Fiction. – Urbana: University of Illinois Press, 1980. – 211 p.
8. Roth P. The Ghost Writer. – New York: Vintage International, 2005. – 186 p., https://books.google.co.uz/books?hl=ru&lr=&id=oSPD1Bq36vsC&oi=fnd&pg=PA3&dq=Philip+Roth+the+ghost+writer&ots=wQi1e3YA7Y&sig=797dtKUWzuXReM_-8KcBh6dPEXc&redir_esc=y#v=onepage&q=Philip%20Roth%20the%20ghost%20writer&f=false
9. Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. – New York: Routledge, 1988. – 268 p.
10. Bloom H. Philip Roth. – New York: Chelsea House Publishers, 2003. – 248 p.